

YURIST SHAXSIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Qarajayeva Dilorom Namozovna

Surxodaryo yuridik texnikumi kata o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21037549>

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyatda ijobiy shaxsiy imiji tushunchasi, uning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. jamiyatda ijobiy shaxsiy imijning shaxsning kasbiy madaniyati, axloqiy qiyofasi, muomala madaniyati hamda jamoadagi o'rni uning ijtimoiy nufuzini belgilashi asoslab berilgan. Shuningdek, yuridik tashkilot va muassasalarning jamoaviy imijini shakllantirish omillari ham ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: yurist imiji, shaxsiy imij, jamoaviy imij, kasbiy madaniyat, huquqiy etika, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, professional nufuz.

Shaxsiy imij – bu mutaxassisning tashqi ko'rinishi, nutq madaniyati, axloqiy fazilatlari, kasbiy mahorati va ijtimoiy xulq-atvori orqali jamiyatda shakllanadigan ijobiy yoki salbiy tasavvurdir.

Yurist imijini shakllantirish – bu kasbiy bilim, yuksak ma'naviyat, axloq qoidalari va tashqi ko'rinishning uyg'unligidir. U mijozlarda ishonch uyg'otishga va jamiyatda ijobiy obro' qozonishga xizmat qiladi.

Jamoaviy imij – bu yuridik tashkilot, sud, prokuratura, advokatlik byurosi yoki boshqa huquqiy muassasaning jamoasi haqida jamiyatda shakllangan umumiy fikrdir.

Aslida shaxs rivojlanishi – inson umumiy rivojlanishining muhim bir qismi hisoblanadi.

Shaxs rivojlanishidan tashqari, uning jismoniy va ruhiy rivojlanishi ham mavjud bo'lib, bu tushunchalar bir-biridan farq qiladi.

Inson tug'ilganidan boshlab butun umri davomida shaxs sifatida rivojlanadi. Bu juda murakkab jarayon bo'lib, ota-ona tarbiyasi, atrof-muhit, kasbiy o'sish ehtiyoji, hayot qiyinchiliklari kabi tashqi omillar unga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Biroq, eng muhimi, ichki omillar hisoblanib, ular ta'sirisiz shaxsning rivojlanishi mumkin emas.

Afsuski, hayotdagi real kuzatishlar bo'yicha, bu omillar insonning shaxs sifatida shakllanishiga har doim ham ijobiy ta'sir ko'rsatavermaydi. Bu narsa, ayniqsa, bo'lajak yuristlar uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'zini o'zi vaqtida va iloji boricha to'liqroq anglab ulgurmagan yuristning boshqalarni anglashi va ular ustidan muayyan xulosalarga kelishi g'oyat og'ir kechadi. Yurist faoliyatida uchraydigan aksariyat jiddiy kamchilik va xatolarning ildizi ayni shu omil bilan bog'liqdir.

Shu tufayli ham shaxsiy rivojlanishi jarayonida inson o'z ichki dunyosini anglashi va uni amalda namoyon etishi, hayotda asqotishi mumkin bo'lgan xususiyatlarni o'zida kashf etishi zarur. Chunki har bir inson tug'ma va keyinchalik orttirilgan – o'zlashtirilgan xususiyatlarga ega bo'ladi, uning xarakteri ichki hamda tashqi dunyo ta'sirida shakllanadi. Insonning atrof muhitidagi ta'sirlar va ichki dunyosidagi kechinmalari uning xarakterida jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Insonda ikki xil, ya'ni pozitiv va negativ ichki kuch bor.

Insonning shakllanishini oldindan aniq bilib bo'lmaydigan jarayon sifatida ta'riflash mumkin. Uni to'liq boshqarib bo'lmaydi, albatta.

Bu jarayon inson taqdiriga va tug'ma xususiyatlarga ega, degan fikrlar ham yo'q emas.

Aksincha fikrlovchilar ham mavjud. Ya'ni, ulug' o'zbek shoiri G'afur G'ulom aytganidek, "Taqdirin qo'l bilan yaratatur inson, g'oyibdan kelajak baxt – bir afsona".¹

Eng asosiy harakatga keltiruvchi omil – bu motivatsiya. Insonda motiv, sabab, ehtiyoj bor ekan, u zarur yo'nalishda harakat qilishda davom etaveradi. Yuristlar shaxsining takomilida ham shaxsiy karera bilan, mutaxassisning o'z ichki intilish va maqsadlari bilan bog'liq motivlar – oldinga qarab tinimsiz harakat

Yurist imijini shakllantirish – bu kasbiy bilim, yuksak ma'naviyat, axloq qoidalari va tashqi ko'rinishning uyg'unligidir. U mijozlarda ishonch uyg'otishga va jamiyatda ijobiy obro' qozonishga xizmat qiladi.

Psixologlar tadqiqotlariga ko'ra, 85 foiz insonlar boshqa odamlar to'g'risidagi ilk fikrini tanishuvning dastlabki 10–20 soniyasida hosil qiladilar. Dastlabki taassurot uzoq vaqt turadi va uni o'zgartirish uchun ancha harakat qilishga to'g'ri keladi.

Bozor raqobati sharoitida huquqshunosning to'g'ri tanlangan imiji uning muvaffaqiyatida muhim omili sanaladi. O'tkir "imij tafakkuriga" ega N.Makiavelli imijning ilk nazariyotchilaridan biri bo'lgan.

"Imij" inglizcha so'z bo'lib, tarjimada obraz, siymo, siyrat ma'nolarini beradi. Bu uchala so'z ham tabiatan berilgan, o'z-o'zidan paydo bo'lgan qiyofaga nisbatan kengroq ma'noni anglatadi. Bu ko'pincha sun'iy ravishda tuzilgan, ob'ektni (xoh u inson, tashkilot yoki biror-bir mahsulot bo'lsin) to'g'ri qabul qilishga yo'naltirilgan butun bir tizimdir. Kompaniyalar, mahsulotlarga nisbatan ko'pincha **brend** so'zi ishlatiladi.

Inson imiji – bu atrofdagilarning uning haqidagi fikri. Ushbu fikr faqat tashqi ko'rinishdan hosil bo'lmaydi. Imij ko'p kasblar uchun muhim tarkibiy qism bo'lib, u nafaqat turmush tarziga, balki shaxsning atrofdagilar tomonidan qabul qilinadigan sub'ektiv siyratiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Har bir inson u yoki bu xislatlariga urg'u berib, o'zini yaxshi tomondan ko'rsatishni istaydi. Masalan, biror-bir inson bilan tanishayotib unga yoqish uchun buni intuitiv tarzda bajaramiz.

Imijning quyidagi ko'rinishlarini farqlash mumkin:

Aks imij – insonning o'zi to'g'risidagi tasavvuri.

Joriy imij – tashqi nazar uchun.

Istalgan imij – biz intilgan obraz.

Korporativ imij – tashkilot imiji, bunga uning reputatsiyasi ham kiradi.

Ko'rinadiki, har bir yurist shaxsiy imijining ijobiy bo'lishi jamoaviy – korporativ obro'ning ham yuksalishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Insonning tashqi ko'rinishi, yuz ifodasi, nigohi, qomati, hatti-harakati, qadam tashlashiga qarab uning bo'layotgan voqealarga munosabati haqida fikr yuritish mumkin.

Yaxshi yaratilmagan imij insonga haqiqiy fazilatlarini, o'z imkoniyatlarini namoyon etishda halaqit beradi. Imij va karera o'rtasida bevosita bog'liqlik bor, ayniqsa, boshqaruv, yurisprudensiya, moliya, savdo kabi muhim sohalarda.

¹. Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya. [Matn]: darslik. / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022. – 159-b.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda ijobiy shaxsiy imijni shakllantirish huquqiy davlatni mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir. Prezident asarlari, o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari yuristdan yuqori kasbiy bilim bilan bir qatorda yuksak axloqiy madaniyat, muloqot qobiliyati va jamoat oldidagi mas'uliyat talab etilishini ko'rsatadi. Ijobiy imij esa huquqqa ishonchni, huquqiy madaniyatni va fuqarolik jamiyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari. – T.: O'zbekiston, 2019. – 24–25-b.
2. Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya. [Matn]: darslik. / Mualliflar jamoasi. – Toshkent:Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022. – 159-b.
3. Shaxsni rivojlantirish: darslik. / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2019. – 171- 191b.
4. Rotman L. Law, Lawyers and Public Trust. – New York: Oxford University Press, 2012. – P. 63–66.
5. Roxin C. Recht und Moral. – München: C.H. Beck, 2011. – S. 91–94. Fevral, 2026-yil
6. Rotman L. Law, Lawyers and Public Trust. – New York: Oxford University Press, 2012. – P. 63–66.
7. Roxin C. Recht und Moral. – München: C.H. Beck, 2011. – S. 91–94.